

YANGI AVLOD O’QUV ADABIYOTLARI QANDAY BO’LISHI KERAK

Azimjonova Ruxshona

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti, boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Yangi avlod darsliklari va uning mazmun-mohiyati haqida ma’lumot berilgan. Yangi avlod darsliklarining boyitish usullari haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: elektron darslik, pedagogik texnologiya, ta’lim, tarbiya, fanlar, tendensiya.

Аннотация: В статье представлена информация об учебниках нового поколения и их содержании. Даны рекомендации по методам обогащения учебников нового поколения.

Ключевые слова: электронный учебник, педагогическая технология, образование, обучение, предметы, направление.

Annotation: The article provides information about new generation textbooks and their content. Recommendations are given on methods of enrichment of new generation textbooks.

Key words: electronic textbook, pedagogical technology, education, training, subjects, trend.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda ta’lim jarayonining samaradorligi ko’p jihatdan o’quv adabiyotlarining sifatiga bog’liq. Fanlar tobora yangilanib, ilmiy yondashuvlar kengayib borayotgan davrda avvalgi kitoblar talabaning ehtiyojini to’liq qondira olmaydi. Shuning uchun zamonaviy o’quv adabiyotlariga qo’yiladigan talablar ham o’zgarib, mazmunan chuqur, shaklan qulay, metodik jihatdan pishiq bo’lishi zarur.

Avvalo, yangi o’quv adabiyotlari ilmiy asoslangan bo’lishi kerak. Kitoblarda keltirilgan har bir ma’lumot ishonchli manbalar, tajribalar va amaliy dalillar bilan tasdiqlanishi muhim. Ayniqsa, tabiiy va aniq fanlar bo’yicha darsliklar zamonaviy ilmiy yangiliklar, kashfiyotlar va qo’llanmalar bilan muntazam boyitilib borilishi lozim. Ilgari o’qitilgan eskirgan bilimlar bugungi kunda na talaba, na jamiyat ehtiyojiga mos keladi. Shuning uchun o’quv adabiyoti doimo rivojlanayotgan bilimlar tizimiga mos yangilanishi muhim hisoblanadi

Ikkinchidan, o’quv adabiyotlari metodik jihatdan to’g’ri qurilgan bo’lishi zarur. Darslikning tili sodda, mantiqan izchil va tushunarli bo’lishi talab etiladi. Har bir bobdan so’ng savollar, mustaqil ish topshiriqlari, amaliy mashg’ulotlar va testlar berilishi talabaning bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, mavzularning ketma-ketligi, murakkablik darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilishi ta’lim jarayonini osonlashtiradi.

Uchinchi muhim jihat — o’quv adabiyotlarining zamonaviy dizayn va texnologiyalar bilan uyg’unligi. Bugungi talaba matn bilan birga tasvir, diagramma, QR-kod, video havolalar kabi multimedia elementlarini ham talab qiladi. Shu sababli yangi o’quv adabiyotlari rangli grafiklar, infografika, elektron ilovalar va interaktiv materiallar bilan boyitilishi lozim. Elektron darsliklar ham bosma variantlar bilan teng darajada mukammal bo’lishi, offline va online ishlash uchun qulaylik yaratishi kerak.

Bundan tashqari, o‘quv adabiyotlari milliy qadriyatlarni aks ettirgan holda xalqaro standartlarga mos tayyorlanmog‘i zarur. Talaba nafaqat o‘z xalqining tarixiy, madaniy va ilmiy yutuqlarini bilishi, balki dunyo miqyosidagi yangiliklardan ham xabardor bo‘lishi kerak. Demak, kitoblar xalqaro tajriba, ilg‘or metodlar va innovatsion ta’lim yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lishi lozim.

yangi o‘quv adabiyotlari bu shunchaki ma’lumotlar to‘plami emas. Ular talabaning fanni chuqur o‘zlashtirishi, tanqidiy fikrlashi, ilmiy izlanishga qiziqishi va amaliyotga tayyor bo‘lib yetishishiga xizmat qiluvchi asosiy manbadir. Zamonaviy darslik ilmiy, aniq, interaktiv, metodik va milliy hamda xalqaro tajribalarni birlashtirgan holda yaratilgandagina haqiqiy ta’lim vositasiga aylanadi. Shu bois, yangi avlod o‘quv adabiyotlari o‘zining mazmuni va shakli bilan bugungi talabaning talabiga, ertangi jamiyatning ehtiyojiga mos bo‘lishi shart. Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘qitishning yangi bosqichga olib chiqish, xorijiy tillar bo‘yicha professional kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirda O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘qitishda ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalar O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti hamda Samarqand davlat chet tillari instituti hisoblansa, Respublikaning barcha viloyatlaridagi universitetlarda xorijiy tillar fakultetlari mavjuddir. Bizga ma’lumki, har qanday turdagi darslik yoki o‘quv qo‘llanma o‘qitiladigan fanning namunaviy dasturida ko‘rsatib o‘tilgan mavzular, adabiyotlar asosida yaratiladi. Ushbu oliy ta’lim muassasalarda g‘arb tillarini o‘qitish, sohalar va tillar bo‘yicha o‘qitiladigan bazaviy fanlarning o‘quv yoki namunaviy dasturlarini yaratishda tayanch oliy ta’lim muassasalari faoliyatining ahamiyati kattadir. Ma’lumki, darsliklarning o‘ziga xos turlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar bilan tavsiflanadi:

1) material tuzilishiga ko‘ra kitob nashrlari (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va boshqalar), qog‘oz nashrlar (topshiriq shakllari, imtihon biletlari va boshqalar), plakatlari;

2) axborotning ikonik xususiyatiga ko‘ra matn, lavha musiqasi, kartografik nashrlar (xarita va sxematik xaritalar), atlaslar va albomlar;

3) foydalanish salmog‘i va ko‘lamiga ko‘ra kitoblar, broshyuralar, to‘plamlar, qismli materiallar;

4) o‘quv nashrlarining maqsadi va tabiatiga ko‘ra darslik, o‘quv qo‘llanmalari, mashqlar to‘plami, uslubiy qo‘llanmalar).

Shunday qilib, darslik aniq belgilangan maqsadga ega bo‘lgan, funksiyalar to‘plami bilan ifodalanadigan o‘quv material turidir. N.Ryabsovaning fikriga ko‘ra, mazmun ob‘yektning barcha tashkil etuvchi unsurlari, xususiyatlari, ichki jarayonlari, munosabatlari, ziddiyat va tendensiyalari birligini ifodalovchi falsafiy kategoriyadir. Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitishda qo‘llanadigan darsliklarni mazmun va struktur jihatdan tahlil etar ekanmiz, bugungi kunda zamonaviy darslik va o‘quv qo‘llanmalarga mazmun va struktur jihatdan qo‘yiladigan talablarni ham e’tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. Ye.Passov “darslik matnida mazmun miqdor bilan belgilanadi, lekin darslik mazmunida ta’lim oluvchilarning tafakkurini rag‘batlantiruvchi, muayyan fan va fuqarolik jamiyati rivojlanishining muammoli va istiqbolli masalalariga e’tiborni qaratishga ko‘maklashuvchi asosiy va predmetga doir bilimlar tizimi aks ettirilgan bo‘ladi” degan fikrni ilgari suradi. Bilim – ta’lim mazmunining

asosiy komponenti bo‘lib, ongli ravishda qabul qilinadigan va xotirada saqlanadigan haqiqatning u yoki boshqa ob‘yektlari haqidagi ob‘yektiv ma’lumotlarning ichki va tashqi bog‘liqliklarini bilish darajasiga, ijodiy foydalanish imkoniyatiga qadar o‘zlashtiriladi. Bilim sifatining xususiyatlariga izchillik, uzluksizlik, umumlashtirish, javob berish qobiliyati, moslashuvchanlik, integrasion va boshqa xususiyatlar kirishi mumkin. Hozirgi vaqtda axborot oqimining ko‘payishi darslikdagi bilimlarning ixcham joylashuvining muhimligiga olib keladi. Shunday qilib, o‘quv materialining majburiy komponentlari – bu terminlar, tushunchalar, dalillar, faoliyat turlari. Har bir darslik ta’lim oluvchilarning o‘quv jarayonini tashkil etish (tez o‘qish, yozish, eslatmalar, bibliografiya tuzish va hokazo)ga yo‘naltirilgan o‘quv mahoratini va o‘qish qobiliyatini shakllantirishni ta’minlashi kerak. O‘quv qobiliyatlari tashkiliy (harakatlar rejasini tuzish va hokazo), amaliy (ma’lumotlardan foydalanish, infografika bilan ishlash va boshqalar), aqliy (g‘oyalarni shakllantirish, muammolarni hal qilish, va hokazo) qobiliyatlarga bo‘linadi. Agar bilim matnni ongli idrok etish orqali o‘zlashtirilsa, ko‘nikmalar mashqlar yordamida mustahkamlanadi va shakllanadi. Shunday qilib, darslik yaratishda qobiliyatlar tizimini yig‘ish, operatsiyalar bo‘yicha qobiliyatlarni ajratish, ularni mavzular bo‘yicha tarqatish, barcha qobiliyatlarni o‘zlashtirish bo‘yicha vazifalarni asosiy va predmetli bilimlar bilan birlashtirish kerak. Bugungi kunda talabalar va o‘qituvchilar uchun XXI asrning fan va texnologiyalaridagi mavjud talablariga javob bera olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish asosiy muammolardan biridir. Axborot kommunikasiya texnologiyasining ta’siri insoniyat hayotining har bir jabhasiga kirib borganligi sababli, ta’lim tizimi XXI asrda fanni o‘qitish uchun shakllantirilgan ko‘nikmalarga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning ma’nosi shuki, bugungi kun o‘qituvchisi XXI asrning fan va texnologiyalari yutuqlaridan o‘z kasbiy faoliyatida foydalana oladigan yetuk kadr tayyorlashni maqsad qilishi lozim.

Demak, bugungi kunda yaratilayotgan o‘quv adabiyotlarimizni tayyorlashda, avvalo, yuqorida ta’kidlab o‘tilgan qarorlarni mazmun va mohiyatini yaxshi tushunib olishimiz maqsadga muvofiqdir. Nemis tilini ikkinchi chet tili sifatida o‘qitish jarayonida qo‘llanadigan yangi avlod darsliklari, asosan, amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash uchun yaratilishini hisobga oladigan bo‘lsak, Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan belgilab qo‘yilgan talablardagi ayrim mulohazali o‘rinlarga va biz tomonimizdan taklif etilgan xalqaro tajribalarga asoslangan yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tarkibiga e’tibor qaratgan holda yaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. № 10. 2003.
2. Коростылёв В.С., Пассов Е.И., Кузовлев В.П. Принципы создания коммуникативного обучения иноязычной культуре // Иностранные языки в школе. № 2. 2002.
3. Пассов, Е.И. Мастерство и личность учителя ИЯ / Е.И. Пассов. – М.: Флинта, 2001.